

MO'G'UL HARBIY TIZIMINING MARKAZIY STRUKTURASI

Rahmonov Abdulloh Hotamjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi, 2-kurs magistranti

Elektron manzil: rahmonovabdulla777@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mo'g'ul imperiyasining harbiy tizimi tarkibidagi asosiy bo'linmalar — keshik, tamma, cherik hamda maxsus harbiy bo'linmalarning shakllanishi, vazifalari va harbiy-siyosiy tizimdagi roli tahlil qilinadi. Mo'g'ullar tomonidan joriy etilgan o'nlik tizimi, saroy qo'riqlash institutlari, chegara qo'shinlari hamda o'troq garnizonlarning siyosiy va harbiy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, muhandislar korpusi, qamal texnikasi va og'ir otliqlar kabi bo'linmalarning imperiya ekspansiyasidagi o'rni ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Mo'g'ul imperiyasi, keshik, tamma, cherik, o'nlik tizim, minqan, qamal texnikasi, harbiy islohotlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается структура военной системы Монгольской империи, включая ключевые подразделения — кэшик, тамма, черик и специальные военные части. Анализируются их функции, механизмы формирования и значение в военно-политическом управлении империи. Особое внимание уделено внедрению десятичной системы, институту дворцовой охраны, пограничным войскам и гарнизонам оседлого населения. Также раскрывается роль инженерных корпусов, осадной техники и тяжёлой кавалерии в военно-экспансионной политике монголов.

Ключевые слова: Монгольская империя, кешик, тамма, черик, десятичная система, минган, осадная техника, военные реформы.

ANNOTATION

This article examines the core components of the Mongol Empire's military structure, including the key units such as the keshik (palace guards), tamma (frontier and expansion forces), cherik (sedentary garrisons), and various specialized military corps. It analyzes their formation principles, operational functions, and strategic role within the imperial military-administrative system. The study also highlights the significance of the decimal military organization, palace guard institutions, border troops, as well as the role of engineering corps, siege technologies, and heavy cavalry in the expansion of the Mongol Empire.

Keywords: Mongol Empire, keshik, tamma, cherik, decimal system, minggan, siege warfare, military reforms.

Mo'g'ul harbiy tizimining markaziy strukturasi

Mo'g'ul imperiyasining tezkor kengayishi va harbiy ustunligi avvalo uning o'ziga xos tizimi bilan bog'liqdir. Bu tizim ko'chmanchi harbiy tajribaning eng samarali unsurlarini markazlashgan boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga asoslangan. Mo'g'ullar jangovar muvaffaqiyatga nafaqat otliqlarning chaqqonligi yoki taktik moslashuvchanlik bilan, balki armiyaning ichki tuzilmasi va bo'linmalar o'rtasidagi aniq funksional taqsimot bilan erishdilar. Har bir bo'linmaning qat'iy vazifasi, tartibi va intizomi mavjud bo'lgani uchun mo'g'ul armiyasi bir vaqtning o'zida ham yuqori harakatchanlikni, ham markaziy boshqaruvning mustahkamligini saqlab qoldi.

Chingizxon bu tizimning asosiy me'mori sifatida harbiy tuzilmani tubdan qayta tashkil etdi. U o'nlik (decimal) tizimni umumimperiyaviy standartga aylantirib, avval alohida yashagan va o'z ichki rahbarlariga bo'ysungan qabilalarni bir markazga birlashtirdi. Natijada har bir jangchi endi qabilaviy mansubligiga emas, bevosita davlat va markaziy qo'mondonlikka bog'landi. Chingizxon shuningdek saroy qo'riqchilari, chegara kuchlari va garnizon bo'linmalarining vazifalarini aniq ajratib, keshik, tamma va cherik kabi institutlarni shakllantirdi. Bu islohotlar imperiyaning harbiy faoliyatini kuchaytirib qolmasdan, siyosiy boshqaruvning barqarorligini, hududiy nazoratning izchilligini va qo'shinlar o'rtasidagi ierarxiyaning aniqligini ta'minladi.

Shu tariqa, Chingizxon islohotlari mo'g'ullar harbiy tizimini zamonaviy ma'nodagi murakkab, funksional va ko'p qatlamli tuzilmaga aylantirdi.

Ushbu harbiy islohotlarning mazmuni va ularning imperiya tuzilmasidagi o'rnini to'liq anglash uchun mo'g'ul qo'shinining ichki strukturasi alohida tahlil qilish zarur.

Mo'g'ul qo'shinining shakllanishi ko'chmanchi harbiy an'analarga asoslandi. Dasht hayoti jangchidan doimiy harakat, moslashuvchanlik va intizom talab qilgani uchun mo'g'ul jamiyatida harbiy tayyorgarlik kundalik turmushning ajralmas qismi hisoblangan. Xon hokimiyati kuchayishi bilan bu tabiiy harbiy tajriba aniq tartibga solingan va markazlashtirilgan tizimga aylantirilgan.

Chingizxon ushbu jarayonda eng muhim o'zgarish — o'nlik (decimal) tizimni umumimperiyaviy me'yor sifatida joriy etdi. Bu tizim qo'shnlarni o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik bo'linmalarga ajratish orqali harbiy boshqaruvni soddalashtirdi va bir markazga bo'ysunadigan mustahkam iyerarxiyani yaratdi.

Mazkur tuzilmaning asosiy bo'g'ini bo'lgan minqan (minglik) esa harbiy-mamuriy birlik sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Minqan qabila chegaralaridan mustaqil holda tashkil qilingani bois, u mo'g'ul armiyasini qabilaviy bo'linishlardan holi, yagona davlat qo'shiniga aylantirishda muhim rol o'ynadi.

Keshik xon atrofida eng ishonchli va doimiy xizmat qiluvchi qo'riqchilar guruhidan tarkib topgan. Uning dastlabki ko'rinishi Chingizxonning hokimiyat sari yo'lida yonida qolgan sodiq maslakdoshlari — Borog'ul, Bo'orchu, Muqali va Chila'un kabi shaxslarning shaxsiy sadoqati bilan bog'liqdir. Bu guruh avvaliga

shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan saroy boshqaruvi va markaziy hokimiyatning ajralmas bo'linmasiga aylandi.

Chingizxon hukmronligi mustahkamlangach, keshikning mavqei ham ko'tarildi: u faqat xonni himoya qiluvchi kichik do'stona doira bo'lib qolmay, balki davlat tomonidan rasmiylashtirilgan, tarkibi, vazifalari va ichki iyerarxiyasi aniq belgilangan institutga aylandi. Dastlab tun soqchilari (kebbe'ul) va kunduzgi soqchilar (turqa'ut) kabi guruhlar shaklida mavjud bo'lgan keshik keyinchalik qurol ko'taruvchilar, saroy xizmatlarini bajaruvchilar va farmon yetkazuvchilarni ham o'z ichiga olgan.

Uning vazifalari tobora kengayib borgan. U davlat ramzlari — tuq va nog'oralar, xonning chodirlari, safar jihozlari va saroy tartib-intizomining saqlanishini ta'minlagan. Shu bilan birga, keshik saroy markazida doimiy navbatchilik qilgan bo'lib, xonning kundalik hayoti, qabul marosimlari va harbiy yurishlarga tayyorgarlik jarayonida ham alohida rol o'ynagan.

Keshikning dastlabki shakli ana shunday tarzda vujudga kelib, keyinchalik uning tarkibi yanada murakkab bo'linmalardan iborat tizimga aylangan.

Keshiklar mo'g'ul saroyining doimiy xavfsizligi, tartibi va markaziy hokimiyatning nazoratini ta'minlashga yo'naltirilgan bir necha bo'linmalardan iborat edi. Bu bo'linmalar vazifa va mas'uliyatlariga qarab aniq ajratilgan bo'lib, ularning har biri saroy hayotining muayyan jihatini boshqarib turardi.

Kebbe'ul — tun qorovullari

Keshikning eng ishonchli bo'linmalaridan biri bo'lgan kebbe'ul xonning tun bo'yicha xavfsizligini ta'minlagan. Ularning navbatchilik tizimi saroyga yaqinlashayotgan har qanday shaxsni qat'iy nazoratdan o'tkazishni, xon chodiri atrofi va asosiy saroy yo'laklarining uzluksiz kuzatilishini ta'minlagan. Kebbe'ul faqat qo'riqlash bilan cheklanmagan: tuq va nog'oralar kabi davlat ramzlarini saqlash, saroy aravalarini tartibga keltirish, oziq-ovqatni tayyorlash va taqdim etish kabi nozik saroy xizmatlari ham ular zimmasida bo'lgan. Ayniqsa xonning ovqatini tayyorlash va uni birinchi bo'lib tatib ko'rish huquqi kebbe'ulga berilgani bu bo'linmaning eng katta ishonchga sazovor ekanini ko'rsatadi.

Turqa'ut — kunduzgi soqchilar

Turqa'utlar saroyning kunduzgi faoliyatida bevosita xavfsizlikni ta'minlaganlar. Ular xonning kun davomida qiladigan harakatlarida, qabul marosimlarida va saroy ichidagi tashkiliy ishlar jarayonida tartibni saqlaganlar. Ularning vazifasi kebbe'ul vazifalaridan farqli ravishda ochiq hududlarda kuzatuv, saroyga kirish yo'laklari ustidan nazorat va tashqi xavflarni erta aniqlashni o'z ichiga olgan. Shu sababli turqa'utlar saroy atrofi va tashqi sarhadlar o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qilgan. Qorcin — qurol va jangovar jihozlar soqchilari

Qorcinlar keshik tarkibidagi qurol-aslaha xavfsizligiga mas'ul bo'lgan bo'linma edi. Ular xonning o'q-yoyi, g'ilofi va jangovar jihozlarini saqlash, tashish va kerak

bo‘lganda taqdim etish vazifasini bajargan. Ularning faoliyati shu darajada muhim ediki, navbatchilik almashganda qorcinlarning o‘q-yoy g‘iloflari vaqtincha kebbe‘ul tomonidan nazoratga olinardi — bu bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va tartibning aniq shaklini ko‘rsatadi.

Keshik faqat saroyning harbiy xavfsizligini ta‘minlovchi bo‘linma emas edi; u markaziy hokimiyatning siyosiy barqarorligini boshqaruvchi eng muhim nazorat instrumentiga ham aylangan. Kebbe‘ul va turqa‘utlarning navbatma-navbat kuzatuv saroy hududida har qanday yashirin tahdidning oldini olgan bo‘lsa, qorcinlarning qurol-aslaha ustidan nazorati saroydagi harbiy kuchning muvozanatini qat‘iy tartibda ushlab turgan.

Chingizxon turli harbiy boshliqlar — tümen, minglik, yuzlik va o‘nlik qo‘mondonlarining farzandlarini keshikka xizmatga olish orqali ularni amalda garov sifatida saroyda saqlagan. Bu amaliyot, bir tomondan, sodiqlikni ta‘minlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan markaziy hokimiyatning qabila rahbarlari ustidan nazoratini kuchaytirgan. Zodagonlar farzandining saroyda bo‘lishi ularni xonga qarshi chiqishdan tiyib turgan eng samarali siyosiy mexanizmlardan biri edi.

Bundan tashqari, keshik yoshlarga mo‘g‘ulcha tarbiya, intizom va saroy tartibini singdiruvchi maxsus tayyorlov muassasasi vazifasini ham bajargan. Keshik muhitida ulg‘aygan bu yoshlar xonning qarashlari, siyosiy madaniyati va harbiy tartibi asosida shakllanib, asta-sekin mo‘g‘ul davlatining eng ishonchli kadrlariga aylangan. Ular keyinchalik zabt etilgan hududlarga boshqaruvchilikka, harbiyqo‘mondonlikka yoki daruqachi lavozimlariga tayinlanganlar.

Shu tariqa, keshik nafaqat saroy xavfsizligini ta‘minlovchi qo‘riqlash bo‘linmasi, balki markazlashgan davlatning siyosiy tayanchi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan.

Mo‘g‘ul harbiy tizimidagi yana bir muhim birlik — tamma imperiyaning tashqi barqarorligi va hududiy kengayishini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy harbiy kuch hisoblangan. Chingizxon davlat markazini ichki xavfsizlik orqali mustahkamlagan bo‘lsa, tamma bu tizimning tashqi halqasini tashkil etib, zabt etilgan hududlarni nazorat ostida ushlab turish vazifasini bajargan.

Tammaning asosiy vazifasi mo‘g‘ullar qo‘lga kiritgan hududlarda doimiy harbiy nazoratni o‘rnatish, chegaralarni qo‘riqlash va qo‘shni siyosiy kuchlarning harakatini kuzatib borishdan iborat edi. Asosiy qo‘shin yurishlar tugagach, tamma shu hududlarda qolib, mahalliy aholi bo‘ysunuvini ta‘minlash, qarshilik o‘choqlarini bartaraf etish va yangi tartibning ishlashiga sharoit yaratish bilan shug‘ullangan.

Tammaning joylashuvi ularning faoliyatiga mos tarzda tanlangan. Ular odatda ko‘chmanchi va o‘troq dunyo tutashgan strategik nuqtalarda — daryo bo‘ylari, savdo yo‘llari, o‘tloqlar va tog‘ etaklarida joylashtirilgan. Bu tamma bo‘linmalariga nafaqat xavfni erta aniqlash, balki zarurat tug‘ilganda tezkor harakat qilish imkonini bergan.

Lagerlar ko‘chmanchilikka mos, barqaror, ammo harakatchan shaklda tashkil etilgan, ularning o‘zaro bog‘lanishi esa chopar-xabarchilar orqali ta‘minlangan.

Tammaning samarali faoliyati uning tarkibidagi alginchi bo‘linmalari bilan chambarchas bog‘liq edi. Alginchilar tammaning ilg‘or kuchi bo‘lib, ular asosiy lagerdan oldinda harakat qilgan, razvedka, kuzatuv va xavfni erta aniqlash bilan shug‘ullangan. Alginchilar mahalliy aholi kayfiyatini kuzatish, qarshilik ehtimolini baholash va tamma joylashadigan hududning harbiy-siyosiy sharoitini oldindan o‘rganib chiqishga mas‘ul bo‘lgan.

Alginchi bo‘linmalarining mo‘g‘ullar uchun ahamiyati shundaki, ular turgan joyi bo‘yicha deyarli mustaqil harakat qilgan, zarurat bo‘lganda dushmanning kichik guruhlarini tarqoqlashtirgan yoki xavfni tamma yetib kelguncha jilovlab turgan. Shu sababli alginchilar tammaning ko‘zi va qulog‘i sifatida qabul qilingan va chegaraviy hududlarda mo‘g‘ul hukmronligining barqarorlashuvida muhim rol o‘ynagan.

Tamma bo‘linmalarining joylashuvi imperiya siyosiy geografiyasiga mos tarzda tanlangan. Mo‘g‘ullar doimiy istehkomlar qurmagan bo‘lsalar-da, tamma lagerlari murakkab harbiy tizimning o‘ziga xos istehkomlashgan shakli bo‘lib xizmat qilgan.

Mo‘g‘ul armiyasi tarkibida cherik deb atalgan o‘troq qo‘shinlar zabt etilgan hududlarda barqaror nazoratni ta‘minlash maqsadida vujudga kelgan maxsus bo‘linma edi. Tamma ko‘chmanchi tabiatga moslashgan harakatlanuvchi kuch hisoblangan bo‘lsa, cherikning shakllanishi doimiy joylashtirilgan garnizonlarga ehtiyoj kuchayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Shaharlar, qal‘alar va strategik ahamiyatga ega o‘troq hududlar mo‘g‘ul hukmronligi ostiga o‘tishi bilan ularda mahalliy aholidan tuzilgan, joyning o‘z sharoitini yaxshi biladigan qo‘shinlar zarur bo‘ldi. Aynan shunday ehtiyoj cherikning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Cherik tamma kabi ko‘chmanchi unsurlarga tayangan bo‘linma bo‘lib qolmadi; aksincha, uning tayanchi mahalliy o‘troq aholi bo‘lgan. Dastlab mo‘g‘ullar xizmatiga o‘tgan sobiq qo‘mondonlar boshchiligidagi kichik guruhlar tarzida shakllangan bu bo‘linma keyinchalik imperiya kengayishi bilan kengroq tizimga aylandi. Shaharlar, o‘troq qishloq jamoalari mo‘g‘ullar tomonidan qayta tashkil qilinib, harbiy-mamuriy bo‘linmalarga bo‘ysundirilar, shu jarayonda ular ichidan mo‘g‘ul davlati uchun xizmat qiluvchi cherik qo‘shinlari tuzilar edi.

Cherikning shakllanishidagi muhim jihat shunda ediki, bu qo‘shinlar o‘z hududining geografiyasi, istehkomlari, yo‘llari, suv manbalari va mahalliy aholi kayfiyatini yaxshi bilgan. Shu sababli ular mo‘g‘ullar uchun nafaqat harbiy kuch, balki hududni boshqarish va nazorat qilishda yordam beruvchi tayanch ijtimoiy tarkib bo‘lib xizmat qilgan. Cheriklarning mavjudligi mo‘g‘ullarga o‘zining ko‘chmanchi otliqlarini uzoq muddatli garnizon vazifasiga jalb etmaslik, asosiy qo‘shinlarni esa kengayish va harbiy yurishlarni davom ettirishga yo‘naltirish imkonini bergan.

Cherik bo‘linmalari dastlab kichik ko‘rinishda mavjud bo‘lsa-da, mo‘g‘ullar Xitoy, Movarounnahr, Erondagi yirik shaharlarni qo‘lga kiritgan sari ularning soni ortib borgan va ular imperiya harbiy tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon keyingi bosqichda cheriklarning o‘ziga xos tarmoqlarga ajralishiga, ayniqsa Han cheriklarining yirik harbiy birliklar sifatida shakllanishiga asos yaratdi.

Mo‘g‘ullar xitoy hududlariga chuqur kirib borganlari sari cherik bo‘linmalari tarkibi sezilarli darajada kengaydi. Ayniqsa Jin imperiyasi qulagandan keyin mo‘g‘ul xizmatiga o‘tgan ko‘plab Han jangchilari asosida yirik harbiy birliklar shakllandi. Chingizxon va undan keyingi hukmdorlar Han qo‘shinlarining tajribasidan samarali foydalanib, ularni mo‘g‘ul harbiy tizimiga mos ravishda qayta tashkil qildilar. Dastlab mustaqil qo‘mondonlarga bo‘ysungan kichik garnizon bo‘linmalari sifatida shakllangan Han cheriklari keyinchalik minqan — mingliklar, va ba’zi hollarda esa tumen — o‘n minglik darajasiga ko‘tarildi.

Han cheriklarining tarkibi bir necha turdagi bo‘linmalardan iborat edi. Ba’zilari Qidan qo‘mondoni Uyar boshchiligida, boshqalari Yeh-Lyu Tuhua yoki Chalaer kabi mo‘g‘ullarga xizmatga o‘tgan tajribali amaldorlar qo‘l ostida bo‘lgan. Bu bo‘linmalar o‘z harbiy an‘analariga ega bo‘lgan holda faoliyat yuritgan: kimdir o‘q-yoychiligi bilan, kimdir og‘ir jangovar tayyorgarligi yoki qal’a mudofaasi bo‘yicha tajribasi bilan ajralib turgan. Natijada Han cheriklari nafaqat son jihatdan katta, balki funksional jihatdan ham rang-barang harbiy kuchga aylandi.

Han cheriklari mo‘g‘ullar imperiyasi uchun ayniqsa shahar va qal’alarni nazorat ostida saqlashda o‘ta muhim vazifani bajargan. Mo‘g‘ul aloqa tizimi va qo‘shinlarining asosiy qismi otliqlardan iborat bo‘lgani sababli, ularni uzoq muddat bir joyda qoldirish harbiy harakatchanlikni susaytirib qo‘yardi. Han cheriklari esa o‘troq hayot tarziga moslashgan, qal’a mudofaasi, devorlar, minoralar va tor ko‘cha janglarida tajribaga ega bo‘lgan jangchilar sifatida shahar garnizonlarining asosiy kuchiga aylangan.

Han bo‘linmalari shaharlarni qo‘riqlashda bir necha vazifani bajargan:

- istehkomlarni ta’mir qilish va saqlab turish,
- darvozalar, yo‘laklar va minoralarda navbatchilik qilish,
- qo‘zg‘olon ehtimolini erta aniqlash,
- mahalliy aholi ustidan kuzatuv va tartibni ta’minlash.

Ularga topshirilgan eng muhim masalalardan biri — zabt etilgan yirik shaharlarni mo‘g‘ul hokimiyatiga sodiq holda ushlab turish edi. Han cheriklari mahalliy tilni bilishi, o‘troq hududning sharoitiga moslashuvchanligi va o‘sha mintaqadagi harbiy qurilishlarni tushunishi sababli mo‘g‘ullar uchun juda foydali bo‘lgan. Bu qo‘shinlar olis hududlarni mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan to‘ldirish zaruratini kamaytirib, imperiyaning harbiy kuchlarini yangi yurishlar uchun bo‘shatib turardi.

Han cheriklarining paydo bo‘lishi mo‘g‘ullar uchun katta strategik afzallik yaratdi: ular shaharlarni mustahkam qo‘riqlash orqali zabt etilgan hududlarda siyosiy

barqarorlikni ta'minlab, imperiyaning yangi bosqichdagi yurishlari uchun qulayliklar keltirdi.

Cheriklar zabt etilgan shahar va qal'alarni doimiy nazoratda ushlab turgan. Maxsus harbiy bo'linmalar mo'g'ul armiyasining texnik va zarba beruvchi salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Bu yerda ayniqsa uch yo'nalish alohida ajralib turadi: muhandislar korpusi, og'ir otliqlar va qamal hamda infratuzilma qurilishidagi maxsus ishlar.

Mo'g'ullar dastlab ochiq maydon janglarida ustunlik qiluvchi otliq qo'shiniga tayanar edi. Ammo devor bilan o'ralgan shaharlar, ko'p qatlamli qal'a tizimlari bilan to'qnash kelgach, oddiy otliq taktika yetarli emasligi ayon bo'ldi. Shundan so'ng maxsus muhandislar korpusini shakllantirish zarurati tug'ildi.

1214-yillar atrofida Ambug'ay boshchiligida mo'g'ullar tarixidagi ilk artilleriya va qamal texnikasiga ixtisoslashgan bo'linma tuzildi. Xitoy manbalarida bu bo'linma baojun – “katapultchilar korpusi” sifatida tilga olinadi. Baojun jangchilari qamal mashinalarini yasash, ularni boshqarish va qal'a devorlarini buzishga moslashgan qurilmalar bilan ishlashga ixtisoslashgan edi. Ular ko'pincha baland minoralar, devorlarni urib tushiruvchi qurilmalar, katta masofaga og'ir tosh otiladigan trebuchetlar va shunga o'xshash vositalardan foydalanganlar.

Baojun bilan bir qatorda nujun deb atalgan arbaletchilar bo'linmasi ham shakllandi. Nujun jangchilari devor ustidagi mudofaachilarni uzoq masofadan nishonga olib, qamal mashinalari yaqinlashishi uchun zarur qulaylik yaratgan. Shu tarzda muhandislar korpusi mexanik qamal vositalari va uzoq masofali zarba berish salohiyatini bir tizimga birlashtirdi.

Muhandislar tarkibi millatlar kesimida juda rang-barang bo'lgan:

- dastlab xitoylik han, qidan va jurched ustalari,
- keyinchalik Movarounnahr, Eron va Yaqin Sharq zabt etilgach, arab, fors, arman va boshqa muhandislar ham qo'shilgan.

Bu mutaxassislar yordamida mo'g'ullar nafaqat qal'alarni egallash usullarini takomillashtirdi, balki murakkab harbiy-infratuzilma loyihalarini ham amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi.

Muhandislar korpusi va maxsus bo'linmalar faqat devorlarni buzish bilan cheklanmagan, balki mo'g'ul yurishlarining umumiy logistik asoslarini ham mustahkamlab bergan. Qamal paytida ular dushman qal'asini o'rab turuvchi devorlar, xandaklar, minoralar va qo'shimcha istehkomlar barpo etganlar. Bu usul qal'a ichida qamal qilingan qo'shinlarning tashqi yordamdan uzilishini ta'minlagan.

Infratuzilma jihatidan muhandislar:

- yo'l qurish,
- ko'priklar barpo etish,
- daryolar yo'nalishini vaqtincha o'zgartirish,

— suv omborlari va to‘g‘onlar bilan ishlash

kabi vazifalarni bajargan. Masalan, Amudaryo ustidan qayiq asosida qurilgan katta ko‘prik qo‘shinlarning tez o‘tishi uchun yaratilgan bo‘lsa, Bag‘dod qamalida Dajla daryosining yo‘nalishiga aralashish orqali dushman lagerini suv ostida qoldirishga erishilgan.

Bu kabi loyihalar ko‘chmanchi qo‘shinlar uchun odatda eng qiyin bo‘lgan masalani — uzoq yurishlarda ta‘minot, o‘tish yo‘llari va tabiiy to‘siqlarni yengish muammosini ancha yengillashtirgan. Shuningdek, qamal qilinayotgan shaharning atrofida devor qurish yoki dushman hududini ataylab vayron qilish ham muhandislar va maxsus bo‘linmalar zimmasiga yuklatilgan.

Shunday qilib, maxsus bo‘linmalar mo‘g‘ul armiyasini faqat yengil otliqlar to‘plami emas, balki texnik jihatdan qurollangan, og‘ir zarbali va infratuzilmaviy tayanchga ega murakkab harbiy tizimga aylantirgan. Ularning faoliyati keshik, tamma va cherik kabi asosiy bo‘linmalar bilan birga ishlash orqali imperiyaning umumiy harbiy mexanizmini to‘ldirib turgan.

Mo‘g‘ul armiyasining asosiy “yadro”si yengil, juda tezkor, kamonchi otliqlardan iborat edi. Biroq imperiya kengaygani sari mo‘g‘ullar og‘ir otliq kuchlarga ham ehtiyoj sezdi. Shu sababli ular bosib olingan hududlardagi an‘anaviy og‘ir otliq an‘anasiga ega xalqlarning jangchilarini alohida bo‘linmalar sifatida armiyaga qo‘shdilar.

Bu yo‘nalishda ayniqsa:

— Volga Bulg‘orlari,

— ruslar,

— shuningdek qidan va jurchen og‘ir otliqlari alohida o‘rin tutadi.

Ular zirhli otlar, og‘ir sovutlar va qo‘l jangi uchun moslangan qurollar bilan ta‘minlangan bo‘lib, dushmanga yaqindan kuchli zarba beruvchi “og‘ir zarbali” kuch vazifasini bajargan. Mo‘g‘ullar bunday bo‘linmalarni o‘z an‘analariga moslab qayta qurollantirgan bo‘lsa-da, ularni majburan yengil kamonchi otliqqa aylantirishga urinmagan. Har bir xalq o‘ziga xos jang uslubini saqlagan holda xizmat qilgan.

Natijada mo‘g‘ul armiyasida quyidagicha funksional taqsimot shakllandi:

— mo‘g‘ul va turkiy yengil otliqlar dushmanni uzoqdan kamon bilan zaiflashtiradi, aylana hujum, chekinib otish kabi taktikalarni bajaradi;

— ruslar, bulg‘orlar va shu kabi og‘ir otliqlar esa yaqin masofadagi yakunlovchi zarbani berish, qarshilikni to‘liq sindirish uchun safarbar etiladi.

Bu kombinatsiya mo‘g‘ullarga nafaqat tezkorlik, balki og‘ir janglarda zarba beruvchi qatlamga ega bo‘lish imkonini ham berdi.

Mo‘g‘ullar harbiy tizimi alohida bo‘linmalarning o‘zaro uyg‘unlashgan faoliyati orqali shakllangan murakkab struktura bo‘lib, keshikning saroy xavfsizligi, tammaning chegara va kengayishdagi roli, cherikning o‘troq hududlarni nazorat qilishdagi ahamiyati hamda maxsus harbiy bo‘linmalarning texnik salohiyati imperiya harbiy

qudratini bir butun tizim sifatida namoyon etgan. Bu tuzilma har bir bo‘linmaning o‘ziga xos vazifasi bilan ajralib turgan. Ular bir-birining imkoniyatini to‘ldirgan va yagona markaziy maqsad — Chingizxon davlatining barqarorligi va kengayishini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Xulosa

Mo‘g‘ul imperiyasi harbiy tizimi o‘z davri uchun benihoya innovatsion, ko‘p qatlamli va uyg‘unlashgan struktura bo‘lib, uning muvaffaqiyati tasodifiy emas, balki puxta tashkil etilgan harbiy-siyosiy konsepsiyaning natijasi edi. Chingizxon o‘nlik tizimini joriy etish orqali jamiyat va qo‘shin tuzilmasini qayta shakllantirdi, keshik orqali markaziy hokimiyatning xavfsizlik tayanchini mustahkamladi, tamma yordamida imperiyaning chekkalarini barqarorlashtirdi va yangi yerlarni o‘z nazorati ostiga oldi. Cheriklar esa o‘troq hududlarni boshqarish va qal‘alarni qo‘riqlashda muhim o‘ringa ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, muhandislar korpusi, og‘ir otliqlar va qamal texnikasi kabi maxsus bo‘linmalar mo‘g‘ul armiyasining texnik salohiyatini yuksaltirib, uni ko‘chmanchi harbiy an‘analar doirasidan chiqarib, global miqyosdagi kuchga aylantirdi. Natijada mo‘g‘ullar nafaqat dasht sharoitida, balki murakkab shaharlashgan hududlarda ham muvaffaqiyatli harakatlana oladigan, o‘z davrining eng moslashuvchan va samarali harbiy tizimiga ega bo‘ldilar.

Shunday qilib, mo‘g‘ul imperiyasi harbiy tizimi — markaziy hokimiyatni mustahkamlash, turli etnik guruhlarini yagona harbiy tizimga birlashtirish va yangi hududlarni boshqarishga moslashtirishning samarali modeli bo‘lib, uning muvaffaqiyati imperiyaning mislsiz tezlikda kengayishiga va uzoq vaqt davomida barqarorligiga asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allsen, Thomas T. **Culture and Conquest in Mongol Eurasia.** Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
2. Allsen, Thomas T. **The Royal Hunt in Eurasian History.** Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2006.
3. Akimbeckov, Sultan. **Чингисхан и его время.** Алматы: Онер, 1996.
4. Atwood, Christopher P. **Encyclopedia of Mongolia and the Mongol Empire.** New York: Facts on File, 2004.
5. Barthold, V. V. **Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya.** Moskva: Nauka, 1963.
6. Buell, Paul D. **Historical Dictionary of the Mongol World Empire.** Lanham: Scarecrow Press, 2003.
7. Buell, Paul D. **The Mongols: A Very Short Introduction.** Oxford: Oxford University Press, 2018.

8. Cleaves, Francis W. *The Secret History of the Mongols (Translation).* Cambridge: Harvard University Press, 1982.
9. Di Cosmo, Nicola. *Ancient China and Its Enemies: The Rise of Nomadic Power in East Asian History.* Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
10. May, Timothy. *The Mongol Art of War.* London: Pen & Sword Military, 2007.
11. May, Timothy. *The Mongol Empire.* Edinburgh: Edinburgh University Press, 2018.
12. Morgan, David. *The Mongols.* Oxford: Blackwell Publishing, 2007.